O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

# FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

**III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

**2025-yil, 21-OKTABR**

BUXORO – 2025

## ANJUMAN DASTURIY QOʻMITASI

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | B.B. Maʼmurov | – | Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | – | Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash boʻlimi boshligʻi, aʼzo; |
| 4. | X.A. Xaitov | – | Tillar fakulteti dekani, aʼzo; |
| 6. | U.S.Amonov | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, aʼzo; |
| 7. | D.B.Axmedova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, aʼzo; |
| 8. | G.B.Rustamova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 10. | R.A.Saidova | | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, aʼzo; |
| 11. | Y.U.Nurova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 14. | M.U.Usmonova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi katta oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 16. | N.O. Avazova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 17 | S.T. Latipova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi, aʼzo |

## ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QOʻMITASI

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | M.M. Bafayev | – | Oʻquv ishlari boʻyicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, aʼzo; |
| 4. | F.R.Rustamov | | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, aʼzo; |
| 6. | M.Y. Roʻziyeva | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, aʼzo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 8. | M.B. Sharipova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 9. | G.B. Rustamova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 10. | R.R. Xalilova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, aʼzo; |
| 11. | M.U. Usmonova | | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi katta oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 12. | F.K. Nurova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi katta oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 14. | M.Y. Latifova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 15. | M.A. Tilavova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi, aʼzo; |
| 16. | M.V. Jabborova | – | Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi, aʼzo. |

Toʻplam Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi "2025-yilda oʻtkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar roʻyxatini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 496-sonli buyrugʻi rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini taʼminlash maqsadida Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida oʻtkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

**Masʼul muharrir:**

G.B. Rustamova - filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori, dotsent

**Taqrizchilar:**

D.S. Oʻrayeva -filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova -filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## O‘ZBEK MAQOLLARIDA OY OBRAZINING SEMANTIK TALQINI (“HIKMATNOMA” ASOSIDA)

**Jabborova Malohat Valijon qizi,**
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi.
BuxDU mustaqil izlanuvchisi
**Muzaffarova Mehrangiz Mirshodovna,**
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda “Hikmatnoma”: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati” asarida aks etgan oy astral nomi bilan bo‘g‘liq maqollar.tahlil etilgan. Asarda jamlangan maqollar o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, axloqiy mezonlari hamda ma’naviy hayot tamoyillarini ifodalaydi.

**Kalit so‘zlar:** estetik mohiyat, dialektik birlik, poetik shakl, o‘zbek maqollari, xalq og‘zaki ijodi, astral nomlar, hayotiy tajriba.

**Аннотация.** В данной диссертации анализируются пословицы, связанные с астральным именем луны, отраженные в труде «Хикматнома”: Аннотированный словарь узбекских пословиц». Собранные в труде пословицы отражают мировоззрение, нравственные критерии и принципы духовной жизни узбекского народа, формировавшиеся веками.

**Ключевые слова:** эстетическая сущность, диалектическое единство, поэтическая форма, узбекские пословицы, народное устное творчество, астральные имена, жизненный опыт.

**Abstract.** This thesis analyzes proverbs related to the astral name of the moon, reflected in the work “Hikmatnoma”: Annotated Dictionary of Uzbek Proverbs”. The proverbs collected in the work reflect the worldview, moral criteria, and principles of spiritual life of the Uzbek people formed over the centuries.

**Keywords:** aesthetic essence, dialectical unity, poetic form, Uzbek proverbs, folk oral creativity, astral names, life experience.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar ustundir.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalarni “Hikmatnoma” tarkibida ham uchratamiz. Biz maqollarni hayotda juda ko‘p ishlatamiz. “Hikmatnoma”– milliy og‘zaki ijodiyotimizning bebaho xazinasidir. Ushbu to‘plamlar xalq tajribasini, dunyoqarashini va hayotiy aqldan tortilgan donolikni o‘zida jamlagan. Maqollar qisqa, ochiq va ta’sirchan shaklda aytiladigan, hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, axloqiy va tafakkurga undovchi iboralardan iborat . “Hikmatnoma”da astral nomlar bilan bog‘liq bir qancha maollar berilgan. Ayniqsa, oy bilan bo‘g‘liq maqollar o‘zining beqiyos o‘rniga ega. Bunga misol qilib ushbu maqollarni keltirishimiz mumkin.

“Oy - oshiqning yo‘ldoshi”, Oy yolg‘izning sirdoshi, o‘ychilarning o‘ydoshi, oshiqlarning mungdoshi, yo‘lchilarning yo‘ldoshi. “Oydinda oqsoq ham sayr qilgisi keladi”: “Oydinda it po‘stak talashar” kabi maqollarda ham oy nomidan oqilona foydalanilgan. “Oy to‘lganin bilmas, yigit er bo‘lganin bilmas”, “Toy ot bo‘lganin sezmas, yigit ota bo‘lganin sezmas” ba’zi yigitlar ulg‘ayib, hatto uylanib, farzandli bo‘lganlarida ham bolalikdagi yengiltaklik, bir o‘ylab netib o‘tirmay qilib yuboradigan orqa o‘ngini o‘ylamay gapiradigan odatlarini qo‘ymaydilar. Mazkur maqolda shundaylarga qarata oy nomi istehzo tarzda qo‘llangan.

“Oyga qarab adashsang, otingni oltin qoziqqa bogʻla” . Bu maqol bilan xalq tunda ketgan yoʻlovchilarga adashmaslik yoʻlini oʻrgatgan. Oʻtmishda kompas boʻlmagan. Uzoq safarga chiqqan yoʻlovchilar bepoyon dasht- biyobonlarda ketayotganlarida tun qorongʻusida adashib qolmaslik uchun yulduzlarga qarab yoʻl tanlaganlar. Ayniqsa, Qutb yulduzi yaʼni "Oltin qoziq", "Temir qoziq" deb ataganlar. Bu yulduz yoʻlchi yulduz vazifasini oʻtagan. Qutb yulduzini koʻkdagi barcha yulduzlar orasida eng muhimi desa boʻladi. U olamning shimoliy qutbiga juda yaqin turarkan hamma vaqt shimol tomonni koʻrsatib turadi. Oybir yerda barqaror turmaganligi va qutb yulduzi faqat himol tomonda bplganligin sababli qadimgi xalqlar qutb yulduzini oʻzlariga yoʻlchi yulduz hisoblaganlar.

“Oyda ham dogʻ bor” tun qorongʻusini yoritib turadigan shunday yorugʻ charogʻon oyning ham yuzlarida dogʻi bor boʻlgani singari eng yaxshi deb hisoblangan yaxshi deb nom olgan har qanday shaxsning va narsaning ham biror juzʼiy kamchiligi, nuqsoni boʻladi, boʻlmasligi ham mumkin emas chunki ijtimoiy va tabiiy qununiyatlarning oʻzi shuni taqozo etadi. Bas, shunday ekan, buning uchun cafa bplish kuyunish kerak emas" degan maʼnoda aytiladi. Koʻpgina hollarda oʻzining tabiiy aybi, kamchiligi va nuqsonidan kuyinadiganlarga tasalli bermoq yupatmoq maqsadida qoʻllanadi.

Hikmatnoma-maqollar asosan xalq ogʻzaki ijodidan kelib chiqqan. Ular uzoq yillar mobaynida avloddan-avlodga oʻtib, kichik paragraflarda ifodalab, xalqning xilma-xil hayot tajribasini chinakam bir dona donalikka aylantirgan. Har bir maqol oʻzida ikki qirrali tafakkur, vaziyatni teran anglash va tezkor xulosa chiqarishni taqdim etadi.

Asarning mazmunida koʻp hollarda haqiqat, adolat, mehnat, doʻstlik, sabr-toqat singari inson uchun muhim boʻlgan qadriyatlar mujassam. Shaklan esa maqollar oddiy, ixcham va tez esda qoladigan shaklda boʻlib, ular tezda odamlar tomonidan qabul qilinadi.

Hikmatnoma-maqollar toʻplami nafaqat mahalliy madaniyatning ajralmas qismi, balki butun insoniyatga umumjahon donolik manbai hamdir. Ular orqali biz oʻtmishimizni yaxshi anglab, kelajak uchun haqiqiy yoʻl-yoʻriq olamiz. Shu bois, ushbu toʻplamlarni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish milliy maʼnaviyatimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Maʼnolar maxzani, T., 2001.

2.Hikmatnoma. www.ziyouz.com

3. Jabborova M. HEAVENLY ATTRIBUTES FOUND IN FOLKLORE AND THEIR IMPORTANCE IN EVERYDAY LIFE //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 10. – C. 159-162.

4. Valiyevna J. M., Atoyevna O. F. SHODIQUL HAMRONING «HOVLIDAGI DARAXT» TIMSOLINIG SHAXS SIFATLARIGA EPITET BOLIB KELISHI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 8. – С. 57-60.

5. Jabborova, M., & Safoyeva, S. (2024). THE IMAGE OF THE SUN IN EPIC WORKS. Solution of social problems in management and economy, 3(4), 165-168.

6.Jabborova, M. (2023). THEORETICAL INTERPRETATION OF STUDENTS'ACADEMIC ACHIEVEMENT. Solution of social problems in management and economy, 2(12), 36-40.

7. Jabborova, M., & Safoyeva, S. (2024). THE IMAGE OF THE SUN IN EPIC WORKS. Solution of social problems in management and economy, 3(4), 165-168.

8. Valiyevna, J. M. (2024). The Artistic Perfection of Cosmic Images in the Works of Yusuf Khos Hajib and Navoi. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 153-158.